

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON XOTIN-QIZLARINING HUQUQIY-IJTIMOY MAVQEIGA OID QARASHLAR

Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi bosh mutaxassisi,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: xxmao1993@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20021918>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlarining huquqiy-ijtimoiy mavqeiga oid qarashlar tarixiy manbalar, davriy matbuot materiallari va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Sharq ayoli” haqidagi stereotiplarning shakllanishi, musulmon ayollarining shariat va mahalliy urf-odatlar doirasidagi huquqlari, matbuotda teng huquqlilik, oila, nikoh, meros va ajrashish masalalarining yoritilishi ko'rib chiqiladi. Muallif Turkiston ayollarini mutlaq huquqsiz qatlam sifatida tasvirlash tarixiy jarayonni soddalashtirib yuborishini, ayni vaqtda ularning ijtimoiy faolligi an'anaviy cheklovlar sabab tor doirada kechganini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Turkiston xotin-qizlari; huquqiy mavqe; ijtimoiy faoliyat; musulmon ayoli; jadidchilik; erta nikoh; meros huquqi; matbuot.

VIEWS ON THE LEGAL AND SOCIAL STATUS OF TURKESTAN WOMEN IN THE LATE NINETEENTH AND EARLY TWENTIETH CENTURIES

Abstract. This article analyzes views on the legal and social status of Turkestan women in the late nineteenth and early twentieth centuries on the basis of historical sources, periodical press materials, and archival documents. The study examines the formation of stereotypes about the “Eastern woman”, the rights of Muslim women within Islamic legal norms and local customs, and the discussion of equality, family, marriage, inheritance, and divorce in the press. The article argues that portraying Turkestan women as an absolutely rightless social group oversimplifies historical reality, while also acknowledging that their social activity was significantly constrained by traditional norms.

Keywords: Turkestan women; legal status; social activity; Muslim woman; Jadidism; early marriage; inheritance rights; press.

ВЗГЛЯДЫ НА ПРАВОВОЕ И СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ЖЕНЩИН ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX И НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. В статье анализируются взгляды на правовое и социальное положение женщин Туркестана в конце XIX — начале XX века на основе исторических источников, материалов периодической печати и архивных документов. Рассматриваются формирование стереотипов о «восточной женщине», права мусульманских женщин в рамках шариата и местных обычаев, а также освещение вопросов равноправия, семьи, брака, наследования и развода в печати. Обосновывается, что представление женщин Туркестана как полностью бесправной социальной группы упрощает историческую реальность, хотя их общественная активность действительно ограничивалась традиционными нормами.

Ключевые слова: женщины Туркестана; правовое положение; социальная активность; мусульманская женщина; джадидизм; ранний брак; наследственное право; печать.

Kirish. 1917-yilgi Oktyabr inqilobiga qadar Turkiston xotin-qizlari haqidagi hukmron tasavvurlar ularni jamiyat hayotidan deyarli chetda qolgan, asosan oilaviy doirada yashagan, eriga to'liq qaram va ijtimoiy huquqlari keskin cheklangan shaxslar sifatida tasvirlar edi. Bunday qarashlarning shakllanishida musulmon jamiyatiga mansublik omili ko'pincha bosh izoh sifatida ko'rsatildi. Natijada “Sharq ayoli” obrazi ko'proq G'arb kuzatuvchilari tasavvuri va madaniy mezonlari orqali baholandi. Aslida esa bu tasavvurlar Yevropa muhitining musulmon an'ana va qadriyatlarini o'z tajribasi doirasida talqin etishi bilan bog'liq edi.

Tarixiy manbalar Turkiston ayollarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy faoliyati ko'p jihatdan chegaralanganini tasdiqlaydi. Ayni paytda ularni to'la huquqsiz yoki “qullik” holatidagi shaxslar sifatida tasvirlash tarixiy manzarani biryoqlama ko'rsatadi. Shariat, mahalliy urf-odatlar va qozilik amaliyoti ayollarga ma'lum darajada mulk, meros, ajrashish va da'vo ko'tarish imkoniyatlarini bergan. Masala shundaki, bu huquqlardan foydalanish ijtimoiy muhit, oila tuzilishi, savod darajasi va mahalliy an'analar bilan bevosita bog'liq holda kechgan.

XIX asrning so'nggi choragidan boshlab ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqlari, oila va nikohdagi mavqei Turkiston ziyolilari, ma'rifatchilari hamda davriy matbuoti tomonidan kengroq muhokamaga olib chiqildi. Bu jarayon dastlab rus tilidagi nashrlar, keyinchalik o'zbek tilidagi gazeta sahifalari orqali davom etdi. Bahslar Qur'on talqinlari, shariat qoidalari, mahalliy urf-odatlar va zamonaviy taraqqiyot mezonlari o'rtasidagi murakkab munosabatlar asosida rivojlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mavzuga oid manbalarni mazmuni va tarixiy yondashuviga ko'ra bir necha guruhda ko'rib chiqish mumkin. Birinchi guruhni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida chop etilgan davriy matbuot materiallari tashkil etadi. “Turkestanskiye vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Turkiston kuryeri” kabi nashrlarda musulmon ayollarining huquqi, ro'mol, nikoh, erta turmush, tibbiy xizmat va teng huquqlilik masalalari turli pozitsiyalardan yoritilgan. Bu materiallar o'sha davr jamoatchilik fikrini, yangilik tarafdorlari va an'anaviy qarashlar himoyachilari o'rtasidagi munozaralarni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi guruhga V. Nalivkin va M. Nalivkina kabi etnografik kuzatuvchilar asarlari kiradi. Ular Farg'ona vodiysi o'troq aholisi turmushini o'rgangan holda ayollar mavqeini faqat tashqi kuzatuv emas, mahalliy hayot tajribasi bilan bog'lab talqin qilishga intilganlar. Uchinchi guruhni arxiv hujjatlari tashkil etadi. O'zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi materiallar nikoh yoshi, qozilik amaliyoti, meros, ajrashish va davlat idoralariga qilingan murojaatlar orqali masalaning amaliy tomonini yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tarixiylik, haqqoniylik va qiyosiy tahlil tamoyillariga tayanildi. Matbuot materiallari muammoli-xronologik usulda ko'rib chiqildi, arxiv ma'lumotlari esa huquqiy va ijtimoiy tarix nuqtai nazaridan talqin qilindi. Manbalar orasidagi farqlar alohida e'tiborga olindi, chunki rus ma'muriy matbuoti, musulmon jamoatchilik vakillari va jadid ma'rifatchilari bir masalaga har doim bir xil pozitsiyadan yondashmagan.

Muhokama. Mazkur masalani keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqqan ilk nashrlardan biri “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi bo'ldi. 1875-yilda mazkur nashr P. Mayevning “O'rta Osiyo xotin-qizlarining huquqlari” mavzusidagi maqolasini chop etdi. Muallif

unda tashqi kuzatuvda mahalliy ayollarning ahvoli cheklangandek ko‘rinsa-da, Qur‘onda ayollarga oid muayyan huquqiy kafolatlar mavjudligini ta‘kidladi. Jumladan, ayollar “qul” maqomida talqin qilinmagani, ajrashish masalasida ma‘lum huquqlarga egaligi, meros olish imkoniyati tan olingani va ayrim holatlarda nikohsiz tug‘ilgan farzandlarning ham merosdan ulush olish huquqi tilga olindi¹.

1889-yilda shu gazeta “Revue Scientifique” jurnalida e‘lon qilingan Genri D‘Estrening “Le voile des musulmanes” maqolasini tarjima qilib bosdi. Unda musulmon ayollari ayrim jihatlarida Yevropa ayollariga nisbatan kengroq ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikr ilgari surildi. Bunday qarash o‘sha davr G‘arb ilmiy muhitida shakllangan “musulmon ayoli — mutlaq tobe shaxs” tasavvuriga ma‘lum darajada qarshi yo‘nalgan edi².

O‘rta Osiyoda uzoq vaqt yashagan V. Nalivkin va M. Nalivkina ham musulmon ayollarining huquqlari shariat hamda urf-odatlar doirasida himoyalanganini qayd etadilar. Ularning fikricha, Turkiston hududida erkaklarning ayollarga munosabati G‘arb mamlakatlaridagi ayrim holatlarga qaraganda yumshoqroq bo‘lgan, ba‘zi vaziyatlarda esa ayollar huquqiy va iqtisodiy masalalarda sezilarli imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Bu mulohazalar o‘lkadagi ayollar hayotiga tashqi stereotiplar orqali emas, ichki ijtimoiy munosabatlar prizmasidan qarash zarurligini ko‘rsatadi³.

Xotin-qizlarning oiladagi o‘rni, jamiyatdagi mavqei va ularga yuklangan vazifalar masalasi o‘zbek tilidagi ilk nashrlardan biri “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida ham muhokama qilindi. 1913-yilda tatar ayollarining musulmon ayollariga yo‘llagan murojaati chop etilib, unda ayollarning jaholatdan chiqishi jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ekani qat‘iy ohangda bayon qilindi. Murojaatda “ma‘rifatli ona” g‘oyasi ilgari surilib, musulmon xalqlarining qoloqligi onalar savodsizligi bilan bog‘landi. Keyingi sonlarda mazkur mavzu davom ettirilib, ayollar uchun maktablar ochish, ularga ilm va kasb-hunar berish zarurati takrorlandi⁴.

Bu davrdagi matbuot bahslari bir yo‘nalishda kechmadi. Yangilik tarafdorlari qizlar ta‘limi, ayollar savodxonligi va ijtimoiy faolligini millat ravnaqi bilan bog‘lagan bo‘lsalar, konservativ qarashdagi mualliflar ayollarni erkaklar bilan tenglashtirishga urinishni Turkiston sharoitiga mos kelmaydigan tajriba deb baholadilar. 1912-yilda “Xotin kishi erkaklar bilan barobar emas” mazmunidagi munozarali materiallarda ayollarning asosiy vazifasi farzand tarbiyasi va uy-ro‘zg‘or bilan cheklanishi lozimligi uqtirildi. Bu holat o‘sha davr jamoatchilik fikrida modernizatsiya va an‘ana o‘rtasidagi ziddiyat keskin bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Turkiston ayollarini butunlay savodsiz qatlam sifatida tasvirlash ham xolis yondashuv bo‘lmaydi. Mahalliy ayollarning bir qismi otinoyilar qo‘lida Qur‘on, hadis, shariat asoslari va diniy-axloqiy me‘yorlardan saboq olgan. Ayrim maktablarda qizlar diniy savod bilan birga mumtoz adabiyot namunalarini ham o‘rgangan. 1884-yilga oid arxiv ma‘lumotlarida Chust shahridagi muallima Komila Bibining maktabida 8 nafar, Umruya

¹ Права среднеазиатской женщины // Туркестанские ведомости. 1875 г. 3 июнь.

² Покрывала мусульманских женщин // Туркестанские ведомости. 1889 г. 14 марта.

³ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография императорского Университета, 1886. – С. 138.

⁴ Мусулмон хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати // Туркiston вилоятининг газети. 1913 й. 1 декабрь; Мусулмон хотин-қизларининг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати // Туркiston вилоятининг газети. 1913 й. 28 ноябрь.

Bibining maktabida 12 nafar qiz tahsil olgani qayd etilgan. Shunga qaramay, bunday maktablar soni oz, dunyoviy fanlarni egallash imkoniyati esa nihoyatda cheklangan edi⁵.

Ayollarning huquqiy-ijtimoiy mavqeini belgilagan muhim omillardan biri nikoh munosabatlari bo'ldi. Rossiya imperiyasi qonunchiligi musulmonlar uchun ham nikoh yoshini belgilab, erkaklar 18 yoshdan, ayollar 16 yoshdan oldin turmush qurmasligi kerakligini ko'rsatgan. Biroq Turkiston sharoitida bu tartib sust tatbiq etildi, chunki oila masalalarida shariat qoidalari va mahalliy urf-odatlar ustuvor bo'lib qoldi. 1899-yilda “Turkestanskiye vedomosti”da chop etilgan maqolada 12–14 yoshdagi qizlarni erta turmushga berish amaliyoti tanqid qilinib, uning tibbiy va huquqiy oqibatlari yoritildi⁶.

Bu mavzuga jadidchilik harakatining yirik vakili Abdurauf Fitrat ham alohida e'tibor qaratdi. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida u erta nikohning qizlar va yigitlar salomatligi, ma'naviy tayyorgarligi hamda kelajak avlod sifatiga salbiy ta'sirini izohladi. Fitrat tabiblar maslahatiga tayanib, erkaklar 23 yoshdan, ayollar esa 18 yoshdan oldin turmush qurmasligi maqsadga muvofiq ekanini yozadi. Uning qarashlarida nikoh faqat urf-odat talabi emas, shaxsiy mas'uliyat, sog'lom avlod va ma'naviy yetuklik bilan bog'liq ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi⁷.

Arxiv hujjatlari erta nikoh masalasi ma'muriy idoralar darajasida ham nazorat qilina boshlaganini ko'rsatadi. 1900-yilda Turkiston general-gubernatori viloyat harbiy gubernatorlariga musulmon qizlarining balog'at yoshini tibbiy yo'l bilan aniqlash vazifasini topshirgan. Toshkent bo'yicha tayyorlangan hisobotlarda qizlarning katta qismi 15 yoshga to'lmasdan turmushga chiqqani qayd etilgan. Boshqa hujjatlarda qozilar va mullalarga belgilangan yoshdan oldin nikoh o'qimaslik bo'yicha ko'rsatmalar berilgani, ayrim holatlarda jarima va ma'muriy choralar qo'llangani ko'rinadi⁸.

Majburiy nikoh masalasi ham matbuotda keskin muhokama qilindi. XX asr boshlariga kelib, qizlarni o'z ixtiyoriga zid ravishda katta yoshli erkaklarga uzatish holatlari tanqid qilina boshladi. “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida bunday amaliyot kelajak avlod ruhiyati, oilaviy muhit va jamiyat axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar bildirildi. Fitrat “Oila” asarida turmush qurishda qalbiy moyillik va rozilik muhimligini alohida ko'rsatib, roziliksiz qurilgan oila baxt keltirmasligini ta'kidlaydi⁹.

Islomiy manbalarda ham nikohda ayol roziligi masalasi muhim o'rin tutadi. Hadis rivoyatlarida beva ayolning ruxsatisiz, bokira qizning roziligisiz nikoh o'qilmasligi qayd etilgan. Bu dalillar jadid ma'rifatchilari va islohot tarafdorlariga majburiy nikohga qarshi chiqishda diniy asos bo'lib xizmat qildi. Shu jihatdan oila va nikoh masalalari faqat ijtimoiy-maishiy muammo emas, huquqiy, diniy va ma'rifiy bahslar markazidagi masala bo'lib qoldi¹⁰.

Ayollar mulk va meros huquqi masalalarida ham ma'lum imkoniyatlarga ega edi. Nalivkinlar qayd etganidek, Farg'ona vodiysi o'troq aholisi orasida ayollar uy-ro'zg'or, meros va oilaviy munosabatlarda butunlay chetlashtirilmagan, ayrim hollarda o'z manfaatini himoya qilish uchun qozilik sudiga murojaat qilgan. Arxiv materiallari musulmon ayollari ajrashish,

⁵ O'zMA, I.47-fond, 1-ro'yxat, 150-ish, 562-varaq.

⁶ Ранние браки у туземцев // Туркестанские ведомости. 1899. № 8.

⁷ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Т.: Маънавият, 2000. 43–44-б.

⁸ O'zMA, I.1-fond, 18-ro'yxat, 53-ish, 26-varaq; 23-varaq.

⁹ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиби. Т.: Маънавият, 2000. 24-б.; Муслмонлар орасида эрта никоҳлар // Туркестон вилоятининг газети. 1913 й. 7 июль.

¹⁰ Аёлларга оид энг зарур фикҳий масалалар. Тошкент: Моварауннахр, 2004. 59-б.

moddiy ta’minot, meros va oilaviy nizolar bo’yicha da’vogar yoki javobgar sifatida ishtirok etganini tasdiqlaydi¹¹.

Ajrashish tashabbusi ham ba’zan ayollar tomonidan ko’tarilgan. Bunga urning haqoratli munosabati, moddiy ta’minot bermasligi yoki tan jarohati yetkazishi sabab bo’lgan. Ayrim holatlarda ayolning shikoyati bo’yicha tibbiy xulosa olinib, sud qarorida dalil sifatida ishlatilgan. Bu holatlar Turkiston ayollarining huquqiy maydondan butunlay chetda bo’lmaganini ko’rsatadi. Biroq huquqdan amalda foydalanish imkoniyati savod, oila mavqei, qarindoshlik aloqalari va mahalliy jamoa munosabatlariga bog’liq edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ijtimoiy mavqei sog’liqni saqlash tizimidagi o’zgarishlar bilan ham bog’liq bo’ldi. Toshkentda ayollar va bolalar uchun shifoxonalar, ambulatoriyalar hamda tug’ruqxona tashkil etilishi musulmon ayollarini yangi ijtimoiy muhit bilan tanishtirdi. Poslavskaya va Mandelshtamning o’n yillik faoliyatga oid ma’lumotlarida Toshkentdagi ayollar va bolalar ambulatoriyasiga minglab bemorlar murojaat qilgani ko’rsatiladi. Keyingi yillarda tibbiy xizmatdan foydalanish ko’lami yanada kengaydi. Bu jarayon ayollar salomatligini muhofaza qilish bilan birga, ularning jamoat muassasalari bilan aloqasini ham kuchaytirdi¹².

Natijalar. Tahlil qilingan manbalar Turkiston xotin-qizlarining huquqiy-ijtimoiy mavqeiga oid qarashlar bir xil bo’lmaganini ko’rsatadi. Rus ma’muriy matbuotida ayollar ahvoli ko’pincha “Sharq jamiyati”ni baholash mezonini sifatida talqin qilindi. Etnografik kuzatuvlarda esa musulmon ayollari shariat va urf-odat doirasida ma’lum huquqiy himoyaga ega ekani qayd etildi. Mahalliy matbuotda bu masala taraqqiyot, ma’rifat, oila tarbiyasi va milliy uyg’onish bilan bog’landi.

Ikkinchi muhim natija shuki, ayollarning huquqiy imkoniyatlari va real ijtimoiy ahvoli o’rtasida sezilarli tafovut mavjud edi. Meros, ajrashish, moddiy ta’minot talab qilish, qozilik sudlariga murojaat etish kabi imkoniyatlar mavjud bo’lgan. Amaliy hayotda esa an’anaviy oilaviy tuzilma, erta nikoh, majburiy turmush, savodsizlik va iqtisodiy qaramlik bu huquqlardan keng foydalanishga to’sqinlik qilgan.

Uchinchi jihat shundaki, jadidlar va ma’rifatparvarlar ayollar masalasini millat kelajagi bilan bog’lab talqin qildilar. Qizlar ta’limi, onalar savodi, sog’lom oila, nikohdagi rozilik va erta turmushga qarshi kurash ularning dasturida muhim o’rin egalladi. Shu sababdan Turkistonda ayollar masalasi XIX asr oxiridan boshlab xususiy oilaviy muammo darajasidan chiqib, jamiyat taraqqiyoti va madaniy o’zgarishlar mezoniga aylandi.

Xulosa. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlarining huquqiy-ijtimoiy mavqeiga oid qarashlar murakkab va ziddiyatli tarixiy sharoitda shakllandi. Bir tomondan, ayollar hayoti oilaviy doira, urf-odat va diniy me’yorlar bilan cheklangan edi. Ikkinchi tomondan, shariat va mahalliy huquqiy amaliyot ularga meros, ajrashish, moddiy ta’minot va sudga murojaat qilish kabi imkoniyatlarni tan olgan. Shu sababli Turkiston ayollarini faqat mutlaq qaram qatlam sifatida tasvirlash tarixiy haqiqatni to’liq ochib bermaydi.

Davriy matbuot, etnografik kuzatuvlar va arxiv hujjatlari ayollar masalasi o’sha davr jamoatchilik fikrining muhim mavzusiga aylanganini ko’rsatadi. Erta nikoh, majburiy turmush,

¹¹ O’zMA, I.18-fond, 1-ro’yxat, 2318-ish, 8-varaq.

¹² Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер. 1909. № 172, 173.; Пославская А., Мандельштамм. Обзор десятилетней (1883–1894) деятельности амбулаторной лечебницы для женщин и детей в Ташкенте. Ташкент, 1894. – С. 94.

qizlar savodsizligi, ayollar salomatligi, mulk va meros huquqi kabi muammolar matbuotda ochiq muhokama qilina boshladi. Jadidlar bu masalalarni milliy taraqqiyot, ma’rifatli ona va sog’lom avlod g’oyalari bilan bog’lab, xotin-qizlar mavqeini jamiyat madaniy darajasini belgilovchi mezon sifatida talqin qildilar.

Mazkur jarayon Turkistonda xotin-qizlar masalasiga oid yangi ijtimoiy tafakkur shakllanganidan dalolat beradi. Bu tafakkur hali keng amaliy natijalarga to’liq olib kelmagan bo’lsa-da, keyingi davrlardagi ta’lim, huquq va ijtimoiy faollik borasidagi o’zgarishlar uchun muhim intellektual zamin yaratdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Тошкент: Маънавият, 2000. — 43-44-б.
2. Аёлларга оид энг зарур фикрий масалалар. — Тошкент: Моварауннахр, 2004. — 59-б.
3. Мусулмон хотин-қизларининг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати // Туркистон вилоятининг газети. — 1913. — 28 ноябрь.
4. Мусулмон хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати // Туркистон вилоятининг газети. — 1913. — 1 декабрь.
5. Мусулмонлар орасида эрта никоҳлар // Туркистон вилоятининг газети. — 1913. — 7 июль.
6. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. — Казань: Типография Императорского университета, 1886. — С. 119.
7. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. — Казань: Типография Императорского университета, 1886. — С. 138.
8. Покрывала мусульманских женщин // Туркестанские ведомости. — 1889. — 14 марта.
9. Пославская А., Мандельштамм. Обзор десятилетней (1883-1894) деятельности амбулаторной лечебницы для женщин и детей в Ташкенте. — Ташкент, 1894. — С. 94.
10. Права среднеазиатской женщины // Туркестанские ведомости. — 1875. — 3 июнь.
11. Ранние браки у туземцев // Туркестанские ведомости. — 1899. — № 8.
12. Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер. — 1909. — № 172, 173.
13. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиби. — Тошкент: Маънавият, 2000. — 24-б.
14. O’zMA, I.18-fond, 1-ro’uxat, 2318-ish, 8-varaq.
15. O’zMA, I.1-fond, 18-ro’uxat, 53-ish, 23-varaq.
16. O’zMA, I.1-fond, 18-ro’uxat, 53-ish, 26-varaq.
17. O’zMA, I.22-fond, 1-ro’uxat, 915-ish, 13-varaq.
18. O’zMA, I.47-fond, 1-ro’uxat, 150-ish, 562-varaq.